

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Kodirova Shoxida Abdunabiyevna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

28-son DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bayon qilingan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari ko'rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье описаны компетенции в области развития ребенка. Показаны методологические основы компетенций в сферах развития ребенка. В частности, были рассмотрены нормативно-правовые документы, касающиеся сферы дошкольного образования и воспитания.

Abstract: This article describes the competences in the areas of child development. Methodological bases of competences in the child's development areas are shown. In particular, regulatory and legal documents related to the field of preschool education and upbringing were specifically addressed.

Kalit so'zlar: bola, kompetensiyalar, rivojlanish sohalari kompetensiyalari, jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi.

Ключевые слова: ребенок, кокомпетенции, компетенции в областях развития, физическое развитие и формирование здорового образа жизни, социально-эмоциональное развитие, речь, общение, навыки чтения и письма, развитие познавательного процесса.

Key words: child, co-competences, competences in developmental areas, physical development and formation of a healthy lifestyle, social-emotional development, speech, communication, reading and writing skills, development of the cognitive process.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida bola kompetensiyasi tushunchasiga ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi, malakalari hamda qadriyatlari deb ta'rif beriladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur kompetensiyani bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilab berilgan bo'lib, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi deb izohlangan. Shu bilan bog'liq holda bajarilishi rejalashtirilayotgan tadqiqot davlatning ijtimoiy buyurtmasi talablarini bajarishga oid vazifalarni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda biroq, o'quv-tarbiyaviy jarayonda turlicha yondashuvlar olib borilsa-da,

bolalarning maktab ta'limiga moslashishi, tengdoshlari va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirishishi qiyin kechmoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikatsiyaning shakllanish darajasi ilk go'daklik davri bilan bog'liqdir. Bu davrda bola insonlar dunyosiga kirib boradi, so'zlashish belgilarni o'zlashtiradi. Odamlar o'rtasidagi muloqot me'yorlari va xulqatvor qoidalari, insonning nutqiy faoliyatining oddiy ko'rinishlari bilan tanishadi. Maktabgacha yoshdagi bola ilk rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Oila a'zolari va pedagog-tarbiyachilar bilan muloqotda bo'lishi orqali asta-sekin xulq-atvor me'yorlarini o'rganadi. Lekin bu davrda u o'z harakatlarini anglay olmaydi. Nutq va muloqot ta'sirida bolaning ichki dunyosi shakllana boshlaydi. Bolaning kattalar bilan munosabat shakli o'zgaradi, atrofidagi voqea-hodisalarga munosabat bildiradi. Natijada bolalar kommunikativ faoliyatni o'zlashtira boshlaydilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kattalar bilan muloqotga kirishadi, o'z atrofidagi jarayonlar bilan bog'liq ravishda so'z zaxirasi kengayib boradi. Bola o'zi shaxs sifatida muloqotni o'rganadi. Bu davr kommunikativ kompetensiyani shakllantirish juda ham muhimdir. Chunki bolalarda "Men" konsepsiyasi shakllanib bo'ladi, ya'ni individuallik yuzaga keladi, o'z-o'zini ko'rsatish ustuvorlik qiladi o'z fikrini erkin ifodalaydi. Individuallashishda bolalarning muloqot qilish ehtiyojlariga bog'liq o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda bolalar asta-sekin ommaviy munosabatlarga kirisha boshlaydi.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu shaxsning noaniq vaziyatda aniq va tezkor harakat qilish qobiliyatidir. Keling, uning asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatamiz:

- faoliyat sohasi;
- vaziyatning noaniqlik darajasi;
- harakat rejimini tanlash imkoniyati;
- qabul qilingan usulning asoslanishi.

✚ **Kompetentsiya** -bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

✚ **Bilish kompetentsiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

«Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetentsiyalari

«Ijtimoiy-emotsional rivojlanish» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

➤ murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi. ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmayapti. Natijada maktab ta’limiga qadam qo‘ygan bolalarning aksariyati turli hayotiy vaziyatlarda muammoga uchramoqdalar. Bolalar maktabgacha ta’limda olgan bilim va ko‘nikmalarini mustaqil fikrlash orqali namoyon etishlari lozim, biroq ularda so‘z boyligini yetarli emasligi sababli muloqotga qiyinchilik bilan kirishadilar. Shuning uchun ham ularning nutqini rivojlantirish, lug‘at zaxirasini boyitish zarur.

Bugungi kunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishda biz 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartlariga ko‘ra ish yuritamiz. Bu standartga ko‘ra bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagilardan iborat

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

• o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

• turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;

• o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;

• sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

• xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

O‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

❖ turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;

❖ turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;

❖ o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

❖ shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;

❖ sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari borasidagi ilmni o‘rganar ekanmiz, bunda rivojlangan Sharq mamlakatlaridan Yaponiya va Xitoyning o‘ziga xos jihatlari borligiga amin bo‘ldik. Masalan, Yaponiyada bu kompetensiyalar maktabgacha tarbiya berishdagi beshta yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, bular quyidagilardan iborat.

✓ ijtimoiy munosabatlar;

- ✓ salomatlik, havfsizlik;
- ✓ til;
- ✓ atrof muxit;
- ✓ his-tuyg'ularini ifodalash.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030 yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning kengroq qamrab olish maqsadida xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari va uy bog'chalar faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Lekin Xitoy davlatidan farqli jihat, bizda qabul qilingan davlat standartlari barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, jumladan, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bir xilda amalga oshirilishi belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va YUNESKO hamkorligida. (2018) I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B.